

## IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA SURXONDARYO VILOYATIDA O‘QITUVCHILAR FAOLIYATI

*Umarov Jamshid Saidmuratovich, Termiz davlat universiteti  
“Jahon tarixi” kafedrasi tadqiqotchisi, pedagogika fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

## TEACHERS’ ACTIVITIES IN THE SURKHANDARDO REGION IN THE YEARS AFTER WORLD WAR II

*Umarov Jamshid Saidmuratovich, Researcher of the Department  
of “World History” of Termez State University, Doctor of  
Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧИТЕЛЕЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

*Умаров Джамишид Саидмуратович, научный сотрудник  
кафедры “Всемирная история” Термезского  
государственного университета, доктор философских наук  
по педагогическим наукам (PhD)*

**Annotatsiya:** Respublika aholisi madaniyatining o‘shida ta’lim tizimi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarining bir-biriga payvasta bo‘lib qo‘shilishiga yordam beradi. Ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim vazifalarini hal qilish ko‘pincha aholining bilim darajasiga bog‘liq. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Surxondaryo viloyatida o‘qituvchilar faoliyati haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** maktab, Surxondaryo viloyati, o‘qituvchi, maktab direktori, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda, xalq ta’limi a’lochilari.

**Abstract:** The education system plays an extremely important role in the growth of the culture of the population of the republic. Education contributes to the comprehensive development of the human personality, the manifestation of abilities, the integration of social and personal interests. The solution of the most important tasks of scientific, technical, economic and social development often depends on the level of knowledge of the population. This article provides information on the activities of teachers in the Surkhandarya region in the years after the Second World War.

**Key words:** school, Surkhandarya region, teacher, school principal, post-war years, outstanding people of public education.

**Аннотация:** система образования имеет чрезвычайно важное значение в развитии культуры населения республики. Образование способствует всестороннему развитию личности человека, раскрытию его способностей, объединению общественных и личных интересов. Решение важнейших задач научно-технического, экономического и социального развития зачастую зависит от уровня образования населения. В данной статье представлена информация о деятельности учителей Сурхандарьинской области в послевоенные годы.

**Ключевые слова:** школа, Сурхандарьинская область, учитель, директор школы, в послевоенные годы, отличники народного образования.

**KIRISH.** Urushdan keyingi yillarda maktablarda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning aksariyatining frontga safarbar qilinishi tufayli maktab-

larda malakali mutaxassislar yetishmay qolgan edi. Buning ustiga urush yillarida o‘qituvchilarning bir qismi qisqa muddatli kurslarda tayyorlangan bo‘lib,



<https://orcid.org/0009-0004-2134-0503>

e-mail:

[Umarovjamshid510@gmail.com](mailto:Umarovjamshid510@gmail.com)

ularning metodik tayyorgarlik darajasi past darajada edi. Bu kabi kamchilik va yetishmovchiliklar ta'lim tizimini rivojlantirishga jiddiy to'siq bo'layotgan edi. Shunga qaramasdan o'z kasbiga fidoyi bo'lgan o'qituvchilar yoshlarga bilim berishda astoydil mehnat qildilar.

**MUHOKAMA.** Urushdan keyingi yillarda respublikada maktablarni malakali o'qituvchilar tarkibi bilan ta'minlash darajasi nihoyatda og'ir ahvolda edi. Respublika miqyosida umuman to'rt ming, jumladan 1-4 - sinflar uchun 800 o'qituvchi yetishmasdi. Rayon xalq ta'limi bo'limlari mudirlari va inspektorlarining, maktab direktorlari va ta'lim bo'yicha direktor muovinlarining 60 foizdan ko'prog'i tegishli ma'lumotga ega emas edi[1:82-83]. Chunonchi 1947-48 - o'quv yilida Surxondaryo oblasti maktablarida 1890 nafar o'qituvchi ishlagan bo'lsa, ulardan qariyb 1000 nafari hatto o'rta ma'lumotga ham ega bo'lmagan[2:419-420]. 1945-46 - o'quv yilida Qashqadaryoda 460 ta maktab mavjud bo'lib, unda 79800 nafar o'quvchi ta'lim oldi. Ushbu maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning 529 nafari maxsus pedagogik ma'lumotga ega edi xolos[3:90].

Bu davrda janubiy oblastlarning maktablarini o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash borasida ham anchagina muammolar mavjud edi. 1951-52 - o'quv yilida Surxondaryo oblastidagi maktablarda 3144 nafar o'qituvchi ishlagan bo'lsa, shundan 322 nafari oliy ma'lumotga ega edi. Biroq, 544 nafar o'qituvchi faqat umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lib, kasbiy pedagogik mahoratga ega emas edi[9]. Biroq ko'pgina fidoyi o'qituvchilar kasbiga astoydil yondashib o'quvchilarga imkon qadar kuchliroq bilim berishga intilib, o'z ustida tinmay ishlab, o'zlarining ilmiy va metodik mahoratini oshirib bordilar va o'qituvchi degan yuksak nomni ulug'lab, unga bir umr sodiq qoldilar.

Masalan, Surxondaryoda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchilar S.Nazarova, N.Norov, N.Yunusov, S.Eshboyev, T.Eshboyev, V.A.Shevernadze, B.Chingizboyeva, T.Mirzayev, X.Yuzboyev, I.Boboxojayev, S.Ashurova, Sh.Bobolovalarning, Qashqadaryo oblastidan esa B.Haqnazarov, I.Shukurov, M.P.Yaminginov, S.V.Nesterova, X.Samadov, M.Bo'riyev, K.A.Xayra, X.Ibrohimov va E.Siddiqovlarning nomlari hali-hanuzgacha alohida hurmat va ehtiram bilan tilga olinadi. Albatta o'qituvchilarning tarkibi yil sayin to'ldirib borish, faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning esa

malakasi va kasb mahoratini muntazam oshirib borish har bir davrning eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Shu boisdan ham 1952-yilning 18-avgustida Termizda oblast o'qituvchilar malakasini oshirish instituti ochildi[4:29].

Urushdan keyingi yillarda viloyat maktablarining malakali o'qituvchilar bilan ta'minlanish darajasi nihoyatda og'ir ahvolda edi. Agar 1947-1948-o'quv yilida viloyat maktablarida 1890 nafar o'qituvchi ishlagan bo'lsa, ulardan qariyb ming nafari hatto o'rta ma'lumotga ham ega emas edi. Bu davrda viloyat maktablariga mutaxassislar tayyorlab berishda Termiz pedagogika bilim yurti alohida o'rin tutdi. O'sha yillarda Jarqo'rg'on tumanida 15 tacha maktab bo'lib, ularda 180 tadan ko'proq muallim ishlar edi. O'shanda 180 o'qituvchidan o'n-o'n besh-tasigina oliy ma'lumotli o'qituvchilar edi. 1977-yilda o'qituvchilar attestatsiyasi o'tkazildi. Ushbu attestatsiya shartlariga to'liq javob beradigan matematiklar rahbari To'rayev O'rolga, metodist o'qituvchi Yormatov Boymamatga "Katta o'qituvchi" unvonlari birinchi bor berildi. Undan keyin unvonli muallimlar soni ko'payib ketdi. Perelinseva, Ismoilova, Trigubova, Rahimova, Bekmirzaev Badal, Niyozov Muhammadi va Qulmirzayev Mirboylarga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan muallim" unvonlari berildi. 1949-1950-o'quv yilidan boshlab yetti yillik majburiy ta'lim joriy etildi. Bu esa ayni vaqtda maktablar sonini ko'paytirish, mavjud maktablarning moddiy-texnik ta'minotini talab qilar edi. O'sha davrda qishloqlardagi maktab yoshidagi aholini maktabga jalb qilishda ham jiddiy kamchiliklar mavjud edi. Ko'plab yoshlar boshlang'ich ta'lim bilan cheklanib qolayotgan edi[8].

Denov tumanida markazida 1940-yil 2 ta oliy ma'lumotli o'qituvchi ishlagan bo'lsa, 1959-1960-yillarda 42 ta oliy ma'lumotli, 1979-80-yillarda 194 oliy ma'lumotli o'qituvchi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishgan[5].

O'z mehnati bilan el e'zozlagan, ko'p yillar maktab direktori lavozimida ishlagan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchilar Ahmad Ergashev, Muhtarama Safarova, Mixail Mashkov, Haydarqulov, To'rayev, Xurram Yoqubov, Raim Sharipov, Mingboy Qurbonov, Jonbo'ta Durmanov, Toshmurod Ernazarov, Ergash Rashidov, Boyqul Malayev, Norbadal Bobomurodov, To'ra Raximov, Yoqub Ergashev,

Eson Jumayev, Juma Tog'ayev, Karim Xudoyqulovlar ham shular jumlasidandir.

Maktabda o'qituvchining o'rni va mehnatiga baho berishda dars samaradorligini, bolalar bilimining chuqur va o'z kasbiga fidoyi mutaxassisligi, ularning turli olimpiadalar, ko'rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtiroki, to'g'ri kasb tanlashi va xalq xo'jaligining yetuk mutaxassisi bo'lishi bilan belgilanadi.

O'z umrini bolalarga ta'lim va tarbiya berishga baxshida etgan "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoniga sazovor bo'lgan Latofat Aslanova, Hadicha Xolbadalova, Qo'ziboy Begmatov, Sora Allayeva, Muhtarama Safarova, xalq o'qituvchilari Raxima Zikirova, Muhabbat Nuraliyeva, O'zbekiston xalq ta'limi a'lochilari Xanimqul Samadov, Xabarniso Sherdonova, Raxima Nizirjonova, Xayriniso Safarova, Qoraboy Toshmurodov, Sulaymon Elbekov, Usmon Nazarov, Narzi Sattorov, Isomiddin Sherov, davlat mukofoti sohiblari V.A.Ignatenko, Yigitali Mamasoliyev denovlik maorifchilarning faxri sanaladi. Bunda ko'rik-tanlovlar, olimpiada va boshqa tadbirlarda o'quvchilari viloyat va Respublika miqyosida faxrli o'rinlarni egallagan o'qituvchi va murabbiylarni ko'plab misol keltirish mumkin.

Sherobod tumanida xalq maorifini rivojlantirishda, o'quvchilarga puxta saviyada bilim berishda katta xizmat qilgan 18-son o'rta maktab direktori R.Xo'jamberdiyev, 2-son yetti yillik maktab o'qituvchisi Ya.Qorajonov, 32-son maktab-dan zarabog'lik X.Xo'jayev, 16-son maktabdan poshxurtlik X.Baratov, Frunze qishlog'idan o'qituvchi Ch.Xo'jaqulov, Xo'jaqiya qishlog'idagi 9-son K.Marks maktabidan A.Norsoatov, Xatak qishlog'idan o'qituvchi M.Mavlonov, Laylagon qishlog'idan o'qituvchi E.Shukurov, 1-son Stalin nomli maktabdan X.Allamurodov, U.Xidoyatov, M.Boboxo'jayev, F.G'iyosov, 6-son o'rta maktabidan S.Eshboyev, o'qituvchilar ustozlari X.Xushboqov, R.Xo'jamberdiyev, I.Mirzayev, N.Jabborovlarning xizmatlari diqqatga sazovordir[6].

Ikkinchi jahon urushi tugagach, Sho'rchi tumani xalq maorifi tizimidagi ta'lim-tarbiya ishlariga e'tibor kuchayib, bu davrda N.Xoliqov, A.Dulnazarov, O'rmonov va Muhammad Normurodov maorif mudiri bo'lib faol xizmat qildilar. Frontdan qaytgan oxunboboyevlik Hamidullo Boltayev va Bo'ri Xudoyberdiyev 1950-yilda Dushanbe shahridagi pedagogika institutini bitirdi. Bu o'qituvchilar Sho'rchi

tumanidan yetishib chiqqan dastlabki oliy ma'lumotli kadrlar hisoblanadi. 1951-yilda H.Boltayev Sho'rchi tuman xalq maorifi bo'limi mudirligiga tayinlandi[7].

1950-yili tumanda 19, 20, 37 va 40-o'rta maktablar faoliyat ko'rsatdi, 1953-yilda Baxshitepa qishlog'idagi 17-maktab tashkil etildi, 5-maktab esa o'rta maktabga, 1955-yilda 8-maktab o'rta maktabga aylantirildi. Bahor faslida toshgan Tentaksoydan o'tishda o'quvchilar qiynalayotganligi sababli 1955-yilda Muqimiy nomli 27-maktab qurilib ishga tushirildi. 1953-yilda H.Boltayev oliy partiya maktabiga o'qish uchun ketganligi tufayli Bo'ri Xudoyberdiyev tuman xalq maorifi bo'limi mudirligiga tayinlandi. 1956-yilda tumanda jami 564 nafar o'qituvchi, jumladan, 44 nafar oliy, 85 nafar maxsus o'rta, 134 nafar umumiy o'rta va 54 nafar to'liqsiz o'rta (7 yillik) ma'lumotli pedagog bo'lgan. 1956-yili Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlardagi oliy o'quv yurtini tamomlagan 30 ga yaqin o'qituvchi pedagoglar safiga qo'shildi. 1956-yilgi avgust kengashida tumanda 20-30 yil ishlagan o'qituvchilarning oliy ma'lumotga ega emasligi tanqid qilindi.

**XULOSA.** Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Surxondaryo viloyati ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar yuz bergan. Jumladan, maktablar, kasb-hunar ta'lim bilim yurtlari soni ortgan. Shuningdek, o'rta va oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash jarayonida ham ancha o'zgarishlar sodir bo'lgan.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Rahmonov N., Umaraliyev A. Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixi ocherklari. – Toshkent: O'qituvchi. 1984. – B.82-83.
2. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq. 2004. – B.419-420.
3. Quvvatova Nodira. XX asrning 20-80-yillarida O'zbekiston qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli (Janubiy viloyatlar misolida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan diss.Toshkent:2010.– B.90.
4. Tursunov S. Kichkilov H. Termiz yilnomasi. – Toshkent: Sharq. 2001. – B.29.
5. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. –Toshkent: Fan, 2009. –B. 501.
6. Tursunov S., Tursunov A., Tog'ayeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. –Toshkent: Yangi nashr, 2014. – B. 356.
7. Tursunov S., Eshboyev Q. Sho'rchi tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. –B. 320.
8. Tursunov S., To'xtayev A., Annayeva Z. Jarqo'rg'on tarixidan lavhalar. –Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 320.
9. Surxondaryo viloyati davlat arxivi 58-fond, 1-ro'yxat 128-ish, 22-23-varaqlar.